



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor

A.K. Shadmanov

«11» noyabr 2021 yil

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Rektorat kengashining

4- sonli BAYONI

Toshkent shahar

«10» noyabr 2021 yil

Raislik qiluvchi: A.K.Shadmanov

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori, professor

Qatnashdilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasining
rektorat kengashi a'zolari
(ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI

1 Akademiyaning Axborot resurs markazi (keyingi o'rinlarda ARM) faoliyati, mavjud muammolar, takliflar, rejalar.

Ma'ruzachi – ARM bo'limi boshlig'i Kuzmina Galina Viktorovna.

2. Iqtidorli talabalar bilan ishlash holati, mavjud muammolar va istiqbol rejaları.

Ma'ruzachi – Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Djuraeva Gulnoza Tulkunovna.

3. Akademiyada namunaviy kafedralarni tashkil etish haqida.

Ma'ruzachi – O'quv ishlari bo'yicha prorektor Boymuradov Shuxrat Abdusalilovich.

4. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A. Boymuradov

Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor



F.L. Azizova

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor




T.A. Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor



M.Sh. Karimov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i



Sh.Sh. Massavirov

Yuriskonsult

B.N. Shukurov

QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi - Akademiyaning Axborot resurs markazi (ARM) faoliyati, mavjud muammolar, takliflar, rejalar mavzusida ARM bo'limi boshlig'i G.V.Kuzmina ma'ruzachi qildi. Ma'ruza axborot va ijro uchun qabul qilinsin.

1.1. Barcha fakultet kafedralarining fanlar kesimida o'quv adabiyotlari bo'yicha o'tkazilgan inventarizatsiya natijalari asosida har bir fan bo'yicha kamida 2 ta asosiy adabiyot mavjudligini inobatga olgan holda zarur, ammo yetishmaydigan o'quv adabiyotlarni 3 tilda (o'zbek, rus va ingliz) xarid qilinishi bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, fakultet dekanlari, ARM bo'limi boshlig'i G.V.Kuzmina, reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'oirov.

Muddat: 10 kun davomida.

1.2. Har bir fan bo'yicha o'quv dasturlarni o'rganib chiqilishi asosida yetishmaydigan o'quv adabiyotlarni harid qilinishi yoki nashr qilinishi yuzasidan buyruq loyihasi tayyorlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Bosh buxgalter A.Sh. Yulchiev, Moliya-reja bo'limi boshlig'i O.U.G'oirov.

Muddat: 10 kun davomida.

1.3. Akademiya xodimlarining ilmiy, ilmiy ommabop jurnallarga va davriy nashrlarga ehtiyojini inobatga olgan holda obuna qilish bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori F.B.Toshpo'latov, Moliya-reja bo'limi boshlig'i O.U.G'oirov.

Muddat: 10 kun davomida.

1.4. Akademiya ARMning elektron bazasini kengaytirish maqsadida o'quv, ilmiy, ommabop adabiyot va jurnallarning elektron resurslarini ko'paytirish bo'yicha raqamlashtirish harakatlari faollashtirilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musaxonov.

Muddat: doimiy.

1.5. ARMda mavjud o'quv va ilmiy adabiyotlar to'g'risida Akademiya professor-o'qituvchilariga to'liq ma'lumot yetkazish maqsadida integratsiya jarayonlari kuchaytirilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, ARM bo'limi boshlig'i G.V.Kuzmina, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: doimiy.

1.6. Akademiya kafedralarida internet tizimi to'liq, sifatli va samarali ishlatilishi ta'minlansin.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A. Boymuradov

Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor



F.L. Azizova

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor



T.A. Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor



M.Sh. Karimov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i



Sh.Sh. Massavirov

Yuriskonsult



B.N. Shukurov

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori F.B.Toshpo'latov. Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musaxonov.

Muddat: doimiy.

1.7. Akademiyaning Bosh o'quv binosi kutubxonasining zamonaviy standartlarga va rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalar andozalariga mos qilib ta'mirlanishi va jihozlanishini bo'yicha tezkor takliflar kiritilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, fakultet dekanlari, ARM bo'limi boshlig'i G.V.Kuzmina.

Muddat: 5 kun davomida.

1.8. Kutubxona adabiyotlarini topshirmagan qarzdor hamda kitoblarni shikastlanishiga yo'l qo'yan talabalarni Akademiya saytida e'lon qilinishi va ularga nisbatan choralar ko'rilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, ARM bo'limi boshlig'i G.V.Kuzmina, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: doimiy.

1.9. Akademiyaning ARM barcha zarur vosita va sarflanadigan materiallar bilan ta'minlansin.

Mas'ul: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor F.B.Toshpo'latov, Moliya-reja bo'limi boshlig'i O.U.G'aipov.

Muddat: doimiy.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi – Iqtidorli talabalar bilan ishlash holati, mavjud muammolar va istiqbol rejaları-mavzusidagi Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i G.T. Djo'raevaning ma'lumoti ahborot uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan). Ma'ruza muhokamasi jarayonida savollarga javob berildi. Jumladan, barcha fakultet dekanlariga, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i G.T.Djo'raevaga, yuriskonsult B.N.Shukurovga Iqtidorli talabalar bilan ishlash Nizomi qayta ishlab chiqilishi topshirilsin.

2.1. Iqtidorli talabalar bilan ishlash Nizomi qayta ishlab chiqilsin va tasdiqlansin. (masalani huquqiy tomoni bo'yicha Akademiya yuriskonsulti **B.N.Shukurov** ma'sul etib belgilansin).

2.2. Talabalarni saralash mezonlari har bir bosqich bo'yicha (kafedra, kurs, fakultet, Akademiya miqyosida) qaytadan ishlab chiqilsin, jumladan:

- talabani fan to'garaklari, mutaxassisligi bo'yicha konferensiya, tanlovlarda faol qatnashishi inobatga olinsin;

- talabani sport to'garaklari va boshqa ommaviy talabalik tadbirlarda faol qatnashishi, shuningdek jamoa va oiladagi ahloqi inobatga olinsin;

- tyutori hamda kafedra, fakultet dekanatlari va boshqa Akademiya jamoasining tavsifnomasi inobatga olinsin;

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A. Boymuradov

Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor



F.L. Azizova

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor



T.A. Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor



M.Sh. Karimov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i



Sh.Sh. Massavirov

Yuriskonsult



B.N. Shukurov

- Akademiyada fanlar bo'yicha iqtidorli talabalarni saralash mexanizmi I-kursdan boshlab ishga tushirilishi, bunda har bir mezon bo'yicha talaba to'plagan ballari ko'payib borishiga va uni natijalariga ko'ra talabani nomdor stipendiyalarga nomzod etib kafedra, fakultet tavsiyalari Akademiya Ilmiy kengashida ko'rib chiqilishi va saytlarida e'lon qilinishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektori F.L.Azizova, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori T.A. Bobomurotov, Davolash ishlari bo'yicha prorektori M.Sh.Karimov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Sh.Massavirov, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i G.T.Djo'raeva, fakultet dekanlari.

Muddat: 3 oy davomida.

2.3. Akademiya kafedralarida har bir fan bo'yicha talabalar to'garaklari faol ishlashiga alohida e'tibor qaratilsin.

Mas'ul: Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektori F.L.Azizova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i G.T.Djo'raeva, fakultet dekanlari.

Muddat: doimiy.

2.4. Akademiya fakultet va kafedralarida fanlar kesimida talabalarni ilm va fanga qiziqtirish hamda jalb etish maqsadida Akademiya talabalari orasida ommalashtirish, motivatsiya, rag'batlantirish va e'tirofga erishish bo'yicha ishlar jadallashtirilsin.

Mas'ul: Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektori F.L.Azizova, fakultet dekanlari, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i G.T.Djo'raeva.

Muddat: doimiy.

2.5. Akademiyaning tasdiqlangan nomdor stipendiatlariga va mahalliy hamda xorijiy tanlovlar g'olibi bo'lgan talabalariga o'z vaqtida pul mukofotlari bilan taqdirlash ta'minlansin.

Mas'ul: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori F.B.Toshpo'latov, Moliya-reja bo'limi boshlig'i O.U.G'oipov.

Muddat: doimiy.

2.6. Akademiyaning faoliyatida katta iz qoldirgan, buyuk olim va insonlar nomi bilan atalgan yangi nomdor stipendiyalarni tadbiq etish bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: Davolash ishlari bo'yicha prorektori M.Sh. Karimov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektori F.L. Azizova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i G.T.Djo'raeva fakultet dekanlari, kafedra mudirlari

Muddat: 1 oy davomida.

2.7. Yuqorida keltirilgan topshiriqlar 3 oy davomida bajarilishi belgilab qo'yilsin.

3. Kun tartibining uchinchi masalasi – Akademiyada namunaviy kafedralarni tashkil etish haqida -O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradovning hisoboti **qoniqarsiz** deb hisoblansin (ma'ruza matnda keltirilgan).

4. Turli masalalar bo'yicha Yoshlar bilan ishlash prorektori T.A.Bobomurotovning "Akademiya Bosh o'quv binosida muzey tashkil etilishi bo'yicha". Ta'lim sifatini

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A. Boymuradov

Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor



F.L. Azizova

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor



T.A. Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor



M.Sh. Karimov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i



Sh.Sh. Massavirov

Yuriskonsult



B.N. Shukurov

nazorat qilish bo'limi boshlig'i Sh.Q.Adilovni "Reyting 2022 y haqida" hamda Rektor yordamchisi A.R.Salievni ma'lumotlari axborot va ijro uchun qabul qilinsin.

4.1. Akademiya shtatiga kiritilgan tyutor lavozimidagi shaxslarni faoliyati va birlashtirilgan talabalar guruhi bo'yicha ma'lumotlari fakultet dekanlari nazoratiga olinsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy va innovatsion ishlar bo'yicha prorektori F.I. Azizova, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori T.A. Bobomuratov, fakultet dekanlari.

4.2. Akademiya reytingi bo'yicha fakultet va kafedralar tomonidan berilgan ma'lumotlari o'z vaqtida taqdim etilishi va haqqoniyligi nazoratga olinsin.

Mas'ul: Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i Sh.Q. Adilov Jismoniy va yuridik shahslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i

Muddat: doimiy

4.3. Akademiyaning Bosh o'quv binosida 100 yillik tarixiga oid tibbiyot tarixiy muzeyi yaratilishi munosabati bilan kafedralar tomonidan tayyorlangan materiallar dastlab fakultet dekani boshchiligidagi ishchi guruhda, so'ng Akademiya Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar prorektori T.A.Bobomurotov boshchiligidagi akademiya ishchi guruhi tomonidan qabul qilinishi ta'minlansin.

Qaror bir ovozdan qabul qilindi. Rektorat Kengashi o'z ishini yakunladi.

Oliy ta'lim muassasasi
kengash kotibi



G.A. Ismailova

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A. Boymuradov

Ilmiy va innovatsion ishlar
bo'yicha prorektor



F.L. Azizova

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha prorektor



T.A. Bobomuratov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor



M.Sh. Karimov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i



Sh.Sh. Massavirov

Yuriskonsult



B.N. Shukurov